

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2024
5-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal

ISSN 2181-8274





Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal.
1996-yilda tashkil etilgan.

Tahrir hay'ati raisi:

M.Boltabayev

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari
markazi direktori

Tahrir hay'ati raisi o'rinbosari:

M.Esanov

Bosh muharrir:

J.Usmanov

Tahrir hay'ati a'zolari:

L.Abduxalilova

L.Zaripov

S.Xudoyberdiyeva

R.Jo'raqulov

M.Aripov

B.Zaripov

U.Djumaniyazov

T.Axmedov

N.Toshpo'latova

S.Maxsumova

Dizayner:

S.Musamedov

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

Dilshod Najmiddinov

BO'LAJAK IQTISODCHI KADRLARNING MALAKASINI SHAKLLANTIRISHDA
AXBOROT KOMPETENTLIGINING AHAMIYATI 3

Малика Мурталибова

ТУРКИЯНИНГ ЯҚИН ШАРҚ МИНТАҚАВИЙ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ
ВА ЭНЕРГЕТИКА МУАММОЛАРИНИ ҲАЛ ЭТИШ БОРАСИДАГИ ГЕОСТРАТЕГИК
ЁНДАШУВЛАРИ 9

Jamshid Qayumov

BENEFITS OF USING VIRTUAL LABORATORIES IN CHEMISTRY 15

Otabek Raxmatov

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARIDA AMALIY
KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI 19

Samijon Xamroyev

TALABALARNI SPORT TO'GARAKLARIGA QIZIQISHLARINI
SHAKLLANTIRISHDA UZVIYLIK VA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH
VOSITALARI 24

Shokirboy Mamatov

SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI KOMPETENTLI TAYYORLASHNING
DIDAKTIK ASOSLARI 29

Н.Турсунбаева

ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА МУСИҚА САНЪАТИ 34

Sitora Xabilova

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY SHAXSIY SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISH MAZMUNI 38

Nozima Asadova

TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARINING ZAMONAVIY
USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH 42

Yoqubjon Mustafayev

BO'LAJAK BADMINTONCHILARDA HARAKAT SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI 47

Bunyod Bazarov

XORIJY TAJRIBALAR VA YUTUQLARNING TA'LIM TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISHDAGI AHAMIYATI 51

Baxrom Nazaraliyev

DAVLAT VA NODAVLAT TELEKANALLARNING FUQAROLAR SIYOSIY ONGI VA
MADANIYATIGA TA'SIRI SWOT-TAHLILI 54

Fotimaxon Mardonova

INSON HUQUQLARI TARAQQIYOT POYDEVORI 63

Aziza Mamanova

TALABALARNI OMMAVIY JISMONIY TARBIYA VA SPORTGA JALB ETISH
MEXANIZMLARNI XORIY TAJRIBALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 67

Kamola Pardayeva

TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI BOLALAR
NUTQINI O'STIRISH 72

Halima Shukurova, Dildora Xo'jamqulova

YANGI AVLOD DARSLIK LARI AMALDA 78

Чарос Мирхаликова

"РАЗВИТИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СОВРЕМЕННОЙ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЕ КАК ФАКТОР УСПЕХА ЛИЧНОСТИ И ЕГО
ДУХОВНО-ЭМОЦИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ" 83

Фарит Юзликеев

ПЕДАГОГИКА: НЕЙРО, ЦИФРОВАЯ И МОДЕЛИРОВАНИЕ 88

Feruza Mustafokulova

"TEACHING GERMAN LANGUAGE TO THE STUDENTS OF NON-PHILOLOGICAL
HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS" 93

Samijon Xamroyev

TALABALARNI SPORT TO'GARAKLARIGA QIZIQISHLARINI

Muassislar:

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi,
Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi*

Manzil: 100095, Toshkent sh.
2-Chimboy ko'chasi, 96-uy.

Telefon: (71) 207-03-41

e-mail: rmxat@edu.uz

**Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot
agentligidan 2014-yil 26-dekabrda 0506
raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.**

*Jurnal har ikki oyda o'zbek, rus va ingliz
tillarida elektron shaklda chop etiladi.*

“Ta'lim, fan va innovatsiya”
jurnali O'zbekiston Respublikasi
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2015-yil 18-noyabrda
218/5-sonli qarori bilan 13.00.00 —
PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha,
2018-yil 28-noyabrda 247/6-sonli
qarori bilan 23.00.00 — SIYOSIY
FANLAR bo'yicha doktorlik
dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan
ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ta'lim, fan va innovatsiya”
jurnalidan ko'chirib bosish faqat
tahririyatning roziligi bilan amalga
oshiriladi. Maqolada keltirilgan
faktlarning to'g'riligi uchun muallif
mas'uldir. Tahririyat fikri mualliflar
fikriga mos kelmasligi mumkin.

*Jurnalning to'liq matnini esijournal.uz rasmiy
saytidan yuklab olishingiz mumkin.*

*Maqola va murojaatlaringizni
[@esijournalbot](https://t.me/esijournalbot) telegram botiga yuboring.*

SHAKLLANTIRISHDA UZVIYLIK VA UZLUKSIZLIKNI

TA'MINLASH VOSITALARI	97
Zaynura Kadirova	
FILOLOGIK TERMINLAR BAZASINI YARATISH METODLARI.....	102
Антонина Кошелева	
ПЕРЕДАЧА КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ СРЕДСТВАМИ ИНФОРМАЦИОННО - КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	105
Шахноза Сабирова	
ИННОВАТИКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В ОБРАЗОВАНИИ ВУЗОВ СФЕРЫ ИСКУССТВ И КУЛЬТУРЫ.....	109
Charos Adilova	
TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK TALABLARI.....	113
Botir Abdullayev	
TALABALARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	117
Ulug'bek Navruzov	
KELAJAK AVLODNING TA'LIM Olishga bo'lgan qiziqishlarini RIVOJLANTIRISHDA USTOZNING ROLI.	122
Niyoxon Toshpulatova	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA STEAM – TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY USULLARI	125
Surayyo Choriyeva, Sitara Otaqulova	
TALABALARNI TA'LIMY QADRIYATLAR ASOSIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	130
Nazokat Iskandarova	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YO'LLARI.....	134
Rohila Ma'rufjonova	
“BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA IRODAVIY SIFATLARNI TARBIYALASH METODIKASI”	138
Iroda Qarshiyeva	
ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA ODOB-AXLOQ VA TARBIYAVIY MASALALARNING YORITILISHI.....	143
Muxabbat Uralova	
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHISINING KASBIY TAYYORLANGANLIGINING IJODIY-METODIK KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI	147
Gulnara Jumayeva	
KOMPETENTSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA MAKTAB O'QITUVCHILARIDA KASBIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING SHARTLARI	151
Maxfuza Babayeva	
TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	157
Nilufar Boynazarova	
O'QITISHDA NUTQ MADANIYATING TURLI FAOLIYATINI O'RGANISH.....	161
Zamira Erdanova	
BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA REFLEKSIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH	165
Jo'rabek Jovliyev	
ONA TILINI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI VA TAHLILI.....	170
Lobar Muxtarova	
O'QUV JARAYONIDA EKOLOGIK XAVFSIZLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH KOMPONENTLARI	175
Shermuhhammad Muhammadjonov, Fotima Radjabova	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MENEJMENTINING VAZIFALARI.....	180
Dilnoza Togayeva	
YEVROSIYO MINTAQASIDA AMIR TEMUR STRATEGIYASI	185
Elena Aripova	
OVERCOMING CHALLENGES IN IMPLEMENTING AI-POWERED GAMIFICATION.....	189

KELAJAK AVLODNING TA'LIM OLISHGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHDA USTOZNING ROLI.

Ulug'bek Navruzov,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada umumta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish bo'yicha ishlarni tashkil etish, kasbga yo'naltirishning nazariy asoslari va unga ijodiy yondashuv, kasb madaniyati borasidagi takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Integratsiya, o'quv dasturlar, tizim, ko'nikma, malaka, diagnostik suhbat, texnologik jarayon, ta'lim.

Аннотация

В статье описаны организация профориентационной работы в общеобразовательных школах, теоретические основы профориентационной работы и творческий подход к ней, а также предложения по вопросам профессиональной культуры.

Ключевые слова: Интеграция, учебная программа, система, навык, компетентность, диагностическое интервью, технологический процесс, образование.

Annotation

The article describes the organization of career guidance in general education schools, the theoretical foundations of career guidance and a creative approach to it, and proposals regarding professional culture.

Key words: Integration, curriculum, system, skill, competency, diagnostic interview, technological process, education.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi mamlakatning barqaror va inklyuziv rivojlanishini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan va O‘zbekistonning uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi. Unda turli sohalaridagi islohotlar, iqtisodiy o‘rish, ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimlarining takomillashtirilishi, ekologik barqarorlikni ta’minlash va davlat boshqaruvini zamonaviylashtirish kabi maqsadlar ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, Strategiya xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadlariga xizmat qiladi.

Shu maqsadda respublikamizda ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifa ilg‘or texnologik o‘quv jarayonlariga asoslangan holda o‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdan iborat. Yangi usulni ta’lim jarayoniga joriy etish o‘quv jarayonlarining tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Bu holat ta’lim jarayoni ishtirokchilarini bilimlari kengaytirishga, ijodkorlikka, tinimsiz izlanishga o‘z ustida ishlashga, har bir darsni haqiqatan ham bir san‘at asari sifatida taqdim etishga olib kelmoqda. Bugungi kun o‘qituvchisi ta’lim oluvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishi, o‘z fanini o‘quvchi uchun hamisha sevimli bo‘lishi uchun nimalarga e’tiborini qaratmog‘i kerak?

Matbuotda berilgan ma’lumotlarga qaraganda chet ellik bolalar orasida quyidagi savol berilib, javoblari tahlil qilingan. “Sen otangni yaxshi ko‘rasanmi yoki televizorni? Ushbu savolga juda ko‘p bolalar —”televizorni” deb javob berganlar. Nima uchun? deyilgan savolga ular —Chunki televizor orqali ko‘pgina yangiliklarni bilib olaman”-degan javobni berganlar. Haqiqatan ham inson tabiati shunday, u tinimsiz yangiliklar olib turishga qiziqadi. Oldinlari ustozlar ta’lim oluvchilar uchun aynan ular hali bilmagan yangi-yangi bilimlar manbai bo‘lib xizmat qilganlar va izzat-e’tiborda bo‘lganlar. Hozirda axborot va uni olish usullari shu qadar ko‘paymoqdaki, o‘qituvchining yangilik manbai bo‘lish funksiyasi endilikda pasayib bormoqda. Ta’lim jarayonida o‘quvchi asosiy

figuraga aylangan, o'qitish va o'qish usullari deyarli tubdan o'zgargan bugungi kunda o'qituvchi qanday bo'lmog'i kerak? Qanday bo'lsak biz — “ustoz” degan nomga munosib, ta'lim oluvchi shogirdlarimiz uchun hamisha yangilik manbai bo'la olamiz? Dono xalqimizda bir maqol bor — “Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar”. Bugungi kunda ham shundaymi?

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar qo'llanilayotgan davrda dars jarayoni ustoz va shogirdning hamkorlikdagi, o'quvchi ham faol ishtirok etadigan jarayonga aylanmoqda. Bu kabi usullarni qo'llab dars o'tilganda o'quvchilar ham mavzu bo'yicha izlanadilar, turli manbalardan ma'lumotlarni to'plab, har xil ko'rinishda taqdim etadilar. Ko'pdan ko'p narsa chiqadi deganlaridek, o'quvchilar izlanib keltirgan ma'lumotlar yanada yangi, xilma-xil va turli-tuman manbalardan olingan bo'ladi.

Dars jarayoni o'quvchining ongiga ozuqa beruvchi, fikrini, bilimni o'stiruvchi, kamolotga yetkazuchi jarayondir. Bunda ham o'quvchilar izlanib mustaqil egallagan bilimlarni betartib tarzda darsda faol ishtirok etayotgan o'quvchilar o'z vaqtida rag'batlantirilishi, buning uchun ustozning oddiy: “Rahmat”, “Barakalla” emas, balki tartib -qoida bilan, o'qituvchi loyihalashtirgan reja asosida ish ko'rish kerak bo'ladi. Shu sababli o'qituvchi nafaqat chuqur bilimga ega, balki dars o'tish usullarini ham puxta egallagan, pedagogik mahoratga, hayotiy boy tajribaga ega bo'lmog'i kerak. Interfaol usulda dars o'tish faqat o'quvchini gapirtirish, dars jarayoni tizginini o'quvchi qo'lga berib qo'yish degani emas. O'qituvchi bu jarayonda passiv tinglovchi emas, balki hamisha faol boshqaruvchi, tahlil qiluvchi muhokamalar jarayonini to'g'ri yo'lga solib boruvchi, vaqtdan unumli foydalanuvchi, eng asosiysi esa mavzuning mohiyatini chuqur anglab yetishlari uchun baribir dars jarayonining asosiy figurasi bo'lib qolmog'i kerakdir.

Dars jarayoni nafaqat o'qituvchiga, balki o'quvchilarning bilim saviyasiga, qiziqish va intilishlariga bog'liq. Ayni bir mavzuni turli auditoriyalarda bir xil usulda o'tib, turli natijaga erishish mumkin. Haqiqatan ham har bir dars o'ziga xos bir sahna asari va bunda o'qituvchi o'z rolini qoyilmaqom qilib ijro etmog'i kerak. Dars jarayoni mavzu ustida ko'pchilik fikr almashadigan, bir narsani har kim o'z bilganicha tushunadigan va boshqalarga o'z imkoniyati va iqtidoridan kelib chiqib taqdim etadigan jarayon. Bunda ta'lim oluvchilar yanglish, chalkash fikrlarda qolib ketmasligi, mavzuni eng zarur tushuncha, qonun va hodisalarni va ulardan kelib chiqadigan natijalarni bilib olmog'i uchun o'qituvchi kompas kabi to'g'ri yo'lga ko'rsatib turishi kerak.

Darsda faol ishtirok etayotgan o'quvchilar o'z vaqtida rag'batlantirishi, buning uchun ustozning oddiy: “Rahmat”, “Barakalla”, “Tashakkur”, “Harakat qilsangiz siz har qanday ishga qodirsiz” kabi maqtov so'zlaridan tortib, o'quvchini o'z kuchiga, iqtidoriga ishonadigan darajaga keltiruvchi bor imkoniyatlarni ishga solishiga to'g'ri keladi. Aytishlaricha, Napoleonni har kuni tongda “Sizni buyuk ishlar kutmoqda” -deb uyqudan uyg'otishar ekan. Biz ustozlar ham shogirdlarimiz ongini shunday ajoyib maqtovlar bilan uyg'otsak, ne ajab, kelajakda buyuk ajdodlarimizning munosib avlodlaridan bu muqaddas Vatanni yanada ko'klarga ko'taruvchi buyuk iste'dodlar yetishib chiqar.

Dars jarayonida mavzuga oid to'g'ri fikrlar bilan birgalikda, yanglish noto'g'ri fikr beradigan o'quvchilar ham bo'ladi[1]. Ular bu fikrini to'g'ri deb o'ylaydi. Bu holda o'qituvchi qanday yo'l tutishi kerak? O'qituvchi o'quvchi qanday fikr berishidan qat'iy nazar darhol bu noto'g'ri deyishi o'rinlimikan? o'quvchini bu holda ham bergan fikri uchun rag'batlantirishi, bunga e'tiroz bildiruvchi yana qanday fikrlar borligini so'rashi, agar boshqa fikr chiqmasa, o'zi haqiqatni aytishi va qayerda xatolikka yo'l qo'yilayotganini bilishni o'quvchilarning o'ziga havola qilishi kerak. Shu tariqa o'quvchilar to'g'ri xulosalar chiqarib boradilar, faolliklari ortadi. O'rtoqlarining fikrlarini tinglashga, mulohaza qilishga o'rganib boradilar.[2]

Ko'p yillik tajribalardan ma'lumki, ba'zi bir hollarda o'quv dargohida qaysi fan o'qituvchilari kuchli bo'lsa, shu fanlar chuqur o'zlashtiriladi va o'quvchilarning bilim olishga qiziqishi va kelajakda kasb tanlashlariga ham buning ta'siri bo'ladi. Buning sababi bunday fidoyi o'qituvchilar, avvalo o'z kasbini, fanini, qolaversa, o'quvchilarini sevadi va mehr ko'rsatadi. Mehr bilan qilingan har bir ish o'zining ijobiy samarasini beradi[3].

O'qituvchi fidoyi o'qituvchi mavqeyiga ega bo'lishi uchun kasbining mohir ustasi bo'lishi kerak. Buning uchun esa fani bo'yicha DTS va ular asosida tuzilgan o'quv dasturlarini mukammal bilishi;

-o'quv predmeti bo'yicha o'qitishning turli texnik –didaktik vositalari, mavjud darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv metodik adabiyotlarni tahlil qila bilishi, ularning bir-biridan farqi va afzalliklarini aniqlay olishi;

-fan bo'yicha ko'rgazma-tajriba va laboratoriya ishlarini zamonaviy jihoz va vositalar yordamida o'tkazish malakasiga ega bo'lishi;

-yangi axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning interfaol usullaridan xabardor bo'lishi va ulardan amalda foydalanishni bilishi;

-o'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashlarini tashkiliy va uslubiy ta'munlashni bilishi;

-iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, saralash va ularga tabaqalashtirilgan ta'lim berish shakllari hamda usullarini bilishi;

-ilg'or ish tajribalarini o'rganishi va ulardan o'z faoliyatida foydalanish malakasiga ega bo'lishi;

-mustaqil ravishda o'z bilim va malakasini oshirishning yo'l va usullarini bilishi va egallashi kerak;

Bulimli, iste'dodli, ilm olishga chanqoq o'quvchilar bo'lishi uchun fidoyi o'qituvchilarning mehnatini qadrlash va yangi-yangi imkoniyatlarni yaratib berish va albatta adolat tamoyillariga rioya qilish kerak. Bunga respublikamizda keng e'tibor berilmoqda xilma-xil tanlovlar rag'batlantiruvchi fondlar mavjud. [4]

O'quv materiallarining ta'lim oluvchilar tomonidan yaxshi o'zlashtirilishi, ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi, kamolotiga hissa qo'shishi o'qituvchining salohiyatiga yoki o'qitish metodiga, o'quv mashg'ulotlarining shakliga ham bog'liqdir. Ta'lim jarayonining qiziqarli bo'lishi uchun o'quv materiallarining mazmuni, o'qitish metodi va o'qitish shakli o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka erishmoq zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sayidahmedov N.S., Indiaminov N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: —Fan va texnologiyal 2014.- 147 b.

2. Tursunov I. G., Narimbetova Z.A. O'QUVCHILARNING GEOMETRIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH (10-11 SINFLAR MISOLIDA) (Monografiya) Toshkent «ZEBO PRINT» 2023

3. Narimbetova Z.A./Matematika fanida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilar tafakkurining rivojlantiruvchi omili/Academic research in educational sciences, Issue 3, 2020, pp 1253-1261. Физика математика ва информатика илмий услубий журналининг 4-сони, 2020 йил, 22-29 б. Тошкент ш.

4. Narimbetova Z.A.Формирование математической грамотности учащихся начальных классов путём интеграции/Web of Teachers: Inderscience Research,ISSN (E): 2938-379X,Volume 2, Issue 03, March 2024.63-66 b.

5. Omonov H.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: —Iqtisod-moliyal 2009.- 156 b.

6. Xolmatov P.Q., Parmonov R. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda, mehnat ta'limi hamda kasbga yo'naltirish ishlarini takomillashtirishdagi muammolar va yechimlar. Maktab va hayot ilmiy jurnali. 2010-y. 4-son.